

IDENTIKLIK TUSHUNCHASI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDAGI AHAMIYATI

Mirzoxid Askarov Mahamadjon o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

mirzokhid.askarov90@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada identiklik tushunchasining nazariy asoslari hamda uning milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot globallashuv sharoitida identiklik kategoriyasining dolzarbligi, uning psixologik, falsafiy, antropologik va sotsiologik talqinlarini kompleks yondashuv asosida yoritishga qaratilgan. Muallif identiklik va identifikatsiya tushunchalarini farqlab ko‘rsatadi hamda E. Erikson, Z. Freyd, J. Lakan, Ch. Teylor, E. Fromm, J. Mid, Ch. Kuli va I. Gofman kabi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qiladi. Identiklik shaxsning ichki yaxlitligi, ijtimoiy moslashuvi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan dinamik jarayon sifatida talqin qilinadi. Maqolada ramziy interaksionizm yondashuvi asosida identiklikning ko‘p qatlamli va vaziyatga bog‘liq xususiyati ochib beriladi. Ushbu nazariy qarashlar zamonaviy O‘zbekiston sharoitida milliy identiklik shakllanishi va qayta talqin qilinishini tushuntirish uchun muhim metodologik asos sifatida baholanadi. Tadqiqot identiklikni individual va ijtimoiy jarayonlar kesishmasida rivojlanadigan murakkab fenomen sifatida ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *identiklik, milliy identiklik, o‘zlikni anglash, identifikatsiya, identiklik inqirozi, ramziy interaksionizm, ijtimoiy identiklik, ego-identiklik, globallashuv, madaniy qadriyatlar, shaxs rivoji, ijtimoiy moslashuv*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются теоретические основы понятия идентичности и его значение в процессе формирования национального самосознания. Исследование направлено на комплексное рассмотрение актуальности категории идентичности в условиях глобализации, а также её психологических, философских, антропологических и социологических интерпретаций. Автор разграничивает понятия идентичности и идентификации и рассматривает теоретические подходы Э. Эриксона, З. Фрейда, Ж. Лакана, Ч. Тейлора, Э. Фромма, Дж. Миды, Ч. Кули и И. Гофмана. Идентичность трактуется как динамический процесс, связанный с внутренней целостностью личности,

социальной адаптацией и системой ценностей. На основе подхода символического интеракционизма раскрывается многослойный и ситуативный характер идентичности. Данные теоретические положения рассматриваются как методологическая база для понимания формирования и переосмысления национальной идентичности в современном Узбекистане. Исследование демонстрирует, что идентичность является сложным феноменом, развивающимся на пересечении индивидуальных и социальных процессов.

Ключевые слова: *идентичность, национальная идентичность, самосознание, идентификация, кризис идентичности, символический интеракционизм, социальная идентичность, эго-идентичность, глобализация, культурные ценности, развитие личности, социальная адаптация.*

ABSTRACT

The article analyzes the theoretical foundations of the concept of identity and its significance in the formation of national self-awareness. The study aims to provide a comprehensive examination of the relevance of identity in the context of globalization, as well as its psychological, philosophical, anthropological, and sociological interpretations. The author distinguishes between identity and identification while examining the theoretical perspectives of E. Erikson, S. Freud, J. Lacan, C. Taylor, E. Fromm, G. Mead, C. Cooley, and I. Goffman. Identity is interpreted as a dynamic process connected with personal integrity, social adaptation, and value systems. Drawing on symbolic interactionism, the article highlights the multilayered and situational character of identity. These theoretical perspectives are evaluated as a methodological basis for understanding the formation and reinterpretation of national identity in contemporary Uzbekistan. The research demonstrates that identity is a complex phenomenon developing at the intersection of individual and social processes.

Keywords: *identity, national identity, self-awareness, identification, identity crisis, symbolic interactionism, social identity, ego identity, globalization, cultural values, personal development, social adaptation*

KIRISH

Darhaqiqat, bugungi kundagi globallashuv zamonida “identiklik” tushunchasining oʻrni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu atama individ tomonidan “oʻzini oʻzi aniqlash” maqsadida ishlatilib, vaqt oʻtishi bilan boshqa shunga yaqin maʼnoli soʻzlarni isteʼmoldan chiqardi va ularning oʻrnini tezlikda

egallab oldi. Ushbu atamaning keng maqsadda foydalanilishi, uning turli talqinlari paydo bo'lishiga olib keldi, ammo aksiga olib, bu talqinlarning ma'nolari bir-biriga teskari ham bo'lib chiqmoqda. Yuzaga kelgan tushunmovchilik nafaqat g'arb olimlari, balki o'zbekistonlik mutaxassislar orasida ham keng tarqalgan.

O'zbekistondagi etnologiya, sotsiologiya yoki ijtimoiy antropologiya fani mutaxassislari orasida identiklik, milliy identiklik, etnik identiklik, ijtimoiy identiklik, guruh identikligi, etnomadaniy identiklik, identiklik krizisi, gender identikligi, til identikligi va boshqa shu atama bilan bog'liq zamonaviy so'zlarga aniq ta'riflar hali ishlab chiqilmagan, mavjudlari ham yakuniga yetkazilmagan. Ularning chegaralari, funksiyalari, ahamiyatini aniqlash, tadqiq etish, baholash bo'yicha ham metodologik tavsiyalar shakllantirilmagan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan zamonaviy tadqiqotlarda g'arb ilm-fanidan "ortda qolmaslik" maqsadida "identiklik" atamasi ko'r-ko'rona, aksariyat holatlarda noo'rin tarzda ham ishlatilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Mazkur maqola "identiklik" tushunchasining mazmuni va milliy o'zlikni anglashdagi o'rnini fanlararo yondashuvda ko'rib chiqadi. Berilgan adabiyotlar identiklikni uch asosiy talqin doirasida izohlash imkonini beradi.

Birinchidan, psixologik yondashuvda (E. Erikson, J. Marsiya, A. Voterman) identiklik shaxsning ichki yaxlitligi va uzluksizlik hissi sifatida talqin qilinadi. Bu holat tug'ma emas, balki hayot davomida ijtimoiy sinovlar va "identiklik inqirozlari" jarayonida qayta qurilib boradigan dinamik tizimdir.

Ikkinchidan, falsafiy talqinda (Ch. Taylor, E. Fromm) identiklik shaxsning qadriyatlar manzarasida o'zini anglashiga bog'lanadi. Taylor identiklikni "kuchli baholashlar" qadr-qimmat, yaxshilik, ma'naviy mezonlar bilan izohlasa, Fromm modern jamiyatda erkinlik va ijtimoiy nazorat o'rtasidagi ziddiyatlar identiklik barqarorligiga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, sotsiologik-antropologik yo'nalishda (J. Mid, Ch. Kuli, P. Berger, T. Lukman, I. Gofman) identiklik shaxslararo muloqot, ramzlar va kundalik amaliyotlar orqali ijtimoiy jihatdan "quriladigan" hodisa sifatida tushuntiriladi. Bu yondashuv identiklikning vaziyatga bog'liq namoyon bo'lishi, "auditoriya"ga mos rollar tanlanishi kabi jihatlarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, adabiyotlarda "identiklik" va "identifikatsiya" (guruh/rolga qo'shilish jarayoni) o'rtasini aniq ajratish zarurligi ta'kidlanadi. O'zbekiston ilmiy muhitida esa terminning ko'p ma'noli va ba'zan operatsion mezonlarsiz qo'llanishi (V. Malaxov, A. Sanina, E. Orlova, V. Efimenko) konseptual noaniqlikka olib kelayotgani ko'rinadi. Mazkur maqola aynan shu noaniqlikni kamaytirish uchun

identiklikning asosiy o'lchamlarini (shaxsiy uzluksizlik, qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy konstruksiya) qisqa va ishlatiladigan ta'riflar orqali tartiblaydi.

Tadqiqotda konseptual tahlil va taqqoslash usuli qo'llanadi: identiklik haqidagi psixologik, falsafiy va sotsiologik yondashuvlar asosiy tushunchalar (uzluksizlik, qadriyat, ijtimoiy rol/ramz) bo'yicha qiyoslanadi. Shuningdek, terminologik aniqlashtirish (identiklik-identifikatsiya farqi) amalga oshirilib, "milliy identiklik"ni tahlil qilishda foydalaniladigan minimal analitik indikatorlar (o'zini nomlash, "biz/ular" chegarasi, qadriyatlar, til/ramzlar, tarixiy xotira) ajratib ko'rsatiladi.

MUHOKAMA

Identiklik muammosi XX – XXI asrlar gumanitar va ijtimoiy fanlarida markaziy o'rinni egalladi. Atama etimologik jihatdan lotincha *identitas* – "bir xil" yoki "xuddi o'zi" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u avvalo subyektning o'ziga yoki muayyan jamoaga nisbatan o'z-o'zini anglashini ifodalaydi. Ilmiy muomalada "identiklik" kategoriyasi ko'p qirrali ma'noga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ham psixologik, ham falsafiy, ham ijtimoiy-madaniy jihatlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, identiklik bilan identifikatsiya (rolga, guruhga, an'anaga qo'shilish jarayoni) o'rtasida farqlarni anglab olish zarur. Chunki shundagina identiklikning dinamikasini ochib berish mumkin bo'ladi.

Bu atamaning paydo bo'lishi va ilmiy muomalaga kiritilishi XX asrning 40–50-yillarida amerikalik psixoanalitik mutaxassis E.Erikson nomi bilan bog'liq.[1] U identiklikni o'ziga xos ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tushunib, avvalo shaxs o'zligining eng tubida joylashgan individual identiklikni tadqiq etadi. E.Erikson uning tuzilishini o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va bir-biri bilan birga ishlovchi qoidalarga asoslangan hamda tashqi o'zgarishlarga qaramay o'zligini saqlab qoladigan "ego-identiklik" deb nomlaydi.

U psixoanalitik an'anaga tayangan holda, ego-identiklikni shaxsning ichki yaxlitlik va uzluksizlik hissi sifatida izohlagan. Bu hissiyot tug'ilishdan hayotning turli bosqichlari va ijtimoiy sinovlar jarayonida shakllanadi. E.Erikson fikricha, bu holatni tushunishni yo'li bu - identiklik inqirozlarini o'rganishdir. Chunki shaxs rivojlanib borar ekan o'z "Men"ini yangi sharoitlarga moslashtirishga majbur bo'ladi, chunki bu shaxs kamoloti uchun tabiiy va zarur jarayondir. Shu ma'noda identiklik – hech qachon individga tayyor holda berilmaydigan, balki hayoti davomida uzluksiz qayta quriladigan dinamik jarayondir. U shaxsning ichki ehtiyojlari bilan tashqi ijtimoiy me'yorlarni uyg'unlashtirish natijasida yuzaga keladi.

Falsafiy nuqtai nazardan identiklik insonning qadriyatlar manzarasida o'z-o'zini anglash qobiliyati sifatida izohlanadi. Ch.Taylor o'zining "Sources of the Self" asarida modern davri "Men" tushunchasining shakllanishini tahlil qila turib, inson

o‘zini anglash jarayonida har doim “kuchli baholashlar”ga (strong evaluations) tayanadi, ya’ni yaxshilik, qadr-qimmat va ma’naviy qadriyatlar kabi chuqur manbalarga murojaat qiladi.[2] Demak, identiklik - bu nafaqat ijtimoiy rollar yig‘indisi, balki insonning madaniy va ma’naviy an‘analardagi “buyuk qadriyatlarga” bog‘lanishi hamdir.

E. Fromm esa identiklikni erkinlik va jamiyatdagi nazorat munosabatlari bilan bog‘laydi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda an‘anaviy tayanchlar yo‘qolgan sharoitda inson erkinlikka ega bo‘lsa-da, baribir yolg‘izlik va xavotir tuyg‘ularini boshdan kechiradi. Shu sababli ko‘pchilik shaxs “erkinlikdan qochish” yo‘lini tanlaydi: konformizm, avtoritarizm yoki destruktsiya orqali tezkor barqarorlik izlaydi. Demak, barkamol identiklik shaxsdan erkinlik va qadriyatlarga sodiqlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashni talab etadi.

Tarixiy-falsafiy qarashlarda identiklik kategoriyasi uzoq vaqtdan beri ma’lum bo‘lib, o‘z o‘ziga o‘xshashlik deb hisoblanadi; mantiqiy kategoriya sifatida esa a’zolari bir-biriga o‘xshash munosabatda bo‘lgan aloqani anglatadi; bu qarashlarda mumkin bo‘lgan farqlar to‘liq istisno qilinadi.[4]

Identiklik haqidagi shunga o‘xshash mulohaza, ya’ni “hamma narsa mohiyatan birdir” yoki “har bir mavjudot o‘ziga o‘xshashdir” degan fikr B.Spinoza[5], F.Shelling[6], M.Xaydegger[7]larning tadqiqotlarida ham uchraydi. Fanda ushbu qarashga mutlaqo teskari yo‘nalish ham rivojlanib, unga ko‘ra inson tabiyatida asosiy o‘rin “o‘zgarmas” jihatlarga emas “o‘zgaruvchan” jihatlarga ko‘proq urg‘u beriladi. Bu yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar qatoriga M.Xorkhaymer[8], E.Levinas[9] va boshqalarni kiritish mumkin. Identiklik tushunchasining falsafiy talqini bo‘yicha batafsil ma’lumotlarni V.Malaxov, V.Abushenko, P.Gurevich, E.Orlova va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqish mumkin.

Shu tariqa identiklikning psixologik va falsafiy talqinlari rivoji keyinchalik antropologik yondashuvni shakllanishiga zamin hozirlab berdi. Bu esa har bir madaniyatni o‘ziga xos fenomen sifatida o‘rganishga yo‘l ochib berdi.

“Identiklik” antropologik kategoriya sifatida psixoanaliz, individual psixologiya (egopsixologiya), ijtimoiy psixologiya, pedagogika va boshqa ilmiy yo‘nalishlar doirasida tadqiq etilgan. Masalan, P. Gurevich identiklikni insonning o‘zini anglash hissi sifatida talqin qiluvchi psixologik nazariyalar uning butun hayoti davomida o‘zgarib borishini, shu sababli u dinamik xususiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, identifikatsiya psixologik himoya mexanizmi sifatida izohlanib, shaxsning o‘zini muayyan obraz yoki model bilan qiyoslash hamda unga o‘xshatish jarayonini ifodalaydi.[10] Natijada, antropologik yondashuvning shakllanishi va

rivojlanishi identiklik tushunchasini yangi nazariy darajaga olib chiqdi hamda uni shaxsning shakllanishi va o'zini anglash jarayoni sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Psixologiya va psixiatriya fanlarida "identiklik" termini uzoq vaqt davomida mustaqil tushuncha sifatida qo'llanilmagan (masalan, u Z. Freyd lug'atlarida alohida termin sifatida uchramaydi). Biroq terminning mavjud emasligi tegishli muammolar psixologik fanlarda muhokama qilinmaganini anglatmaydi. Tadqiqotchilar ushbu tushuncha yuzasidan chuqur nazariy mulohazalarning boshlanishini Z.Freyd asarlarida ko'radilar. Z. Freyd psixoanaliz metodologiyasidan foydalanib, shaxs ongidan yashirin bo'lgan ichki "Men"ni – ya'ni ong osti tuzilmalari bilan bog'liq o'zlik qatlamlarini aniqlashga intilgan. Bu yondashuv identiklik muammosini shaxsning ichki psixik tuzilmasi bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin qilish imkonini berdi. Identiklikka oid psixologik jihatlar keyinchalik postfreydizm doirasida yanada faol rivojlantirildi. Xususan, J. Lakan tadqiqotlarida identiklik, subyektivlik va o'zlikni anglash masalalari yangi nazariy talqin asosida qayta ko'rib chiqilib, shaxsning ramziy va psixik tuzilmalari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi.

NATIJALAR

Ma'lumki, "identiklik" tushunchasi atrofidagi ilmiy munozaralar XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmidan boshlab sezilarli darajada faollashdi. Ushbu fenomenni o'rgangan deyarli barcha tadqiqotchilar amerikalik psixolog va psixoanalitik E.Eriksonning alohida o'rnini ta'kidlaydilar. U identiklikni maxsus ilmiy muammo sifatida o'rganib, mazkur termini o'z tadqiqotlarida keng qo'llagan.[11] E.Eriksonning identiklikka doir ayrim asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

- u identiklikni shaxs individualligining markazida joylashgan murakkab jarayon hamda ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi. Shu bois identiklik muammosi ko'lamdor va ko'p qatlamli bo'lib, uni aniq chegaralash murakkabdir;

- E.Erikson identiklikni shaxsning uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida belgilaydi. Ushbu jarayon insonning o'zini hozirgi zamonda anglashini o'tmish tajribasi va kelajak istiqbollari bilan bog'laydi.

- u shaxs identikligi inqirozlari tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, ularning jamiyatdagi inqiroz jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini asoslab berdi. Erikson nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi keskin o'zgarishlar davrida yuzaga keladigan shaxsiy identiklik inqirozlari yangi identiklik shakllarining paydo bo'lishi uchun boshlang'ich nuqta vazifasini bajaradi.

E.Eriksondan so'ng u asos solgan psixoanalitik yo'nalish J.Marsiya tomonidan davom ettirildi. Shuningdek, A.Voterman identiklik tuzilmasini yanada chuqur tahlil

qilib, uning to'rtta asosiy sohasini ajratib ko'rsatdi: kasbiy tanlov; axloqiy va diniy yo'nalish; siyosiy yo'nalish; oilaviy-jinsiy yo'nalish. Ushbu tasnif identiklikni shaxs hayotining turli ijtimoiy va madaniy o'lchamlari bilan bog'liq murakkab tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

Taxminan shu davrda, psixoanalitik qarashlar bilan bir qatorda, identiklikning sotsiologik nazariyalari ham rivojlandi. Ular shaxsning individual "Men"i yoki identikligi shaxslararo muloqot jarayonida shakllanadigan ramziy ma'nolar orqali ijtimoiy jihatdan konstruksiyalanishini ta'kidlaydi.[12] Bunda individ o'zini muayyan guruh a'zosi sifatida boshqalarning ijtimoiy rollarini qabul qilish orqali anglaydi. Hayotning dastlabki bosqichlarida bu rollar, avvalo, ota-onalar bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega shaxslar orqali kengayib boradi.

Mazkur yo'nalish J.Mid, Ch.Kuli, P.Berger, I.Gofman kabi sotsiologlar tomonidan rivojlantirildi. Ularning ishlari identiklikni ijtimoiy o'zaro ta'sir, ramziy kommunikatsiya va kundalik ijtimoiy amaliyotlar jarayonida shakllanuvchi dinamik hodisa sifatida talqin qilishga xizmat qildi.

Keyinchalik mazkur ilmiy yo'nalish "ramziy interaksionizm" (ba'zi mualliflarda - "interpretativ paradigma") nomi bilan atala boshlandi. An'anaviy ravishda J.Mid shaxs identikligini sotsiologik jihatdan tushuntirishning asoschisi sifatida e'tirof etiladi.[13] J.Mid talqiniga ko'ra, identiklik – bu insonning o'z xatti-harakatlarini yaxlit va o'zaro bog'liq tizim sifatida idrok etish qobiliyatidir. U identiklikni impulsiv, ichki psixik "Men" hamda ijtimoiy "O'zim" o'rtasidagi muvozanatli tizim sifatida izohlaydi; aynan shu muvozanat shaxsning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

J.Mid birinchilardan bo'lib individning ichki holati bilan ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzluksiz bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslab berdi. Shu orqali u identiklikni ijtimoiy kontekstda tahlil qilishning metodologik poydevorini yaratib, shaxs o'zligining ijtimoiy shartlanganligini ko'rsatdi.

Amerikalik tadqiqotchi Ch.Kuli J.Midning ijtimoiy nazariyalarini rivojlantirar ekan, ijtimoiy "Men"ning aynanlik (tenglik) muammosini individning o'zi haqidagi tasavvurlari bilan boshqalarning u haqdagi qarashlarini o'zaro taqqoslash orqali izohladi. Bu yondashuv "oynali Men" konsepsiyasi sifatida mashhur bo'lib, unda identifikatsiya shaxsning jamiyatda va o'zi a'zo bo'lgan guruhda qanday qabul qilinishi bilan bog'liq xususiyatlarning aks etishi sifatida talqin qilinadi.[14]

J. Mid yondashuvini davom ettirib, I. Gofman identiklikning uch turini ajratib ko'rsatadi: 1) ijtimoiy identiklik; 2) shaxsiy identiklik; 3) "Men" identikligi. Birinchi tur shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb bilishi bilan tavsiflanadi; ikkinchisi, insonning noyob jismoniy xususiyatlari hamda hayotiy voqealari majmuini anglatadi; uchinchisi esa, individning o'z individualligini va hayotining

uzluksizligini subyektiv his etishi bilan bog'liqdir.[15] I. Gofmanning “dramaturgik yondashuvi” nafaqat sotsiologlar, balki siyosatshunoslar, tarixchilar, antropologlar va etnologlar orasida ham keng e'tirof etilgan. Uning mashhur “Представление себя другим в повседневной жизни (Kundalik hayotda boshqalarga o'zini namoyish etish)” asarida[16] jamiyat bir jinsli tuzilma emasligi, inson esa turli ijtimoiy vaziyatlarda turlicha harakat qilishi ta'kidlanadi. I.Gofman bu yerda U.Jeyms tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy shaxsning ko'plik konsepsiyasiga tayanadi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, inson o'zi qadrlaydigan turli guruhlar mavjud bo'lganidek, shuncha ijtimoiy “Men”ga ega bo'ladi va odatda har bir guruhga o'z shaxsiyatining turli jihatlarini namoyon etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, identiklik shaxs va guruhning “men” hamda “biz” haqidagi tasavvurlarini shakllantiradigan, vaqt o'tishi bilan qayta qurilib boradigan ko'p qatlamli hodisadir. Adabiyotlarda u uch yo'nalishda talqin qilinadi: psixologik yondashuvda ichki uzluksizlik va yaxlitlik hissi, falsafiy talqinda qadriyatlar asosidagi o'zini anglash, sotsiologik yondashuvda esa muloqot va ramzlar orqali ijtimoiy konstruksiya sifatida. Milliy o'zlikni anglashda identiklik tarixiy xotira, til, umumiy qadriyatlar hamda “biz/ular” chegaralari orqali birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli identiklikni identifikatsiya bilan aralashtirmasdan, terminni aniq operatsion mezonlarda qo'llash muhim; aks holda konseptual noaniqlik kuchayadi. Mazkur maqola aynan shu o'lchamlarni tizimlab, milliy identiklikni tahlil qilish uchun minimal amaliy indikatorlarni taklif etadi.

Bizning fikrimizcha, U. Jeyms va I. Gofman yondashuvi zamonaviy O'zbekistonda identiklikning vaziyatga bog'liq o'zgaruvchan tabiatini tushuntirishda samarali nazariy kalitdir. Chunki milliy o'zbek identikligi shakllanishidan oldin mavjud bo'lgan “an'anaviy” identikliklar nisbatan mustaqil davom etgan va hozir ham individ turli ijtimoiy muhitlarda “auditoriya”ga mos identiklikni tanlab namoyon etadi. Demak, identiklik qat'iy o'zgarimas holat emas, balki vaqt-makon va ijtimoiy kontekstga qarab yangilanib boradigan dinamik tuzilma bo'lib, uning ko'p qatlamliliigi milliy identiklikning shakllanishi va qayta talqin qilinishida muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton, 1968. – P. 17–19.
2. Taylor Ch. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. – P. 25-30.

3. Фромм Э. Бегство от свободы. – М.: АСТ, 2004. – С. 45-50.
4. Ефименко В. Генезис понятия «идентичность» в гуманитарных науках // Ярославский педагогический вестник. 2012. Т. II. № 4. – С. 7–11.
5. Спиноза Б. Сочинения: в 2 т. Т. 1. – СПб.: Наука, 1999. – 489 с.
6. Шеллинг Ф. Философия искусства. – М.: Мысль, 1966.
7. Heidegger M. Identitaet und Differenz. – Pfullingen, 1957.
8. Хоркхаймер М. Затмение разума: к критике инструментального разума. – М.: Канон, 2011. – 224 с.
9. Лэвинас Э. Время и другой; Гуманизм другого человека / пер. с фр. А. В. Парибка. – СПб.: Высш. рел.-фил. школа, 1998.
10. Санина А. Генезис идеи идентичности в социологии ... – С. 3-11. Цит. по: Гуревич П. Проблема идентичности человека в философской антропологии // Вопросы социальной теории, 2010. – Т. IV. – С. 64.
11. Деррида Ж. Письмо и различие / пер. с фр. Д. Кралечкина. – М.: Академический проект, 2007. – 495 с.
12. Эриксон Э. Молодой Лютер. Психоаналитическое историческое исследование / Эрик Г. Эриксон; пер. с англ. А.М. Каримского. – М.: Московский философский фонд «Медиум», 1996. – 560 с.;
13. Симонова О. К формированию социологии идентичности // Социологический журнал, 2008. – №3. – С. 50.
14. Санина А. Генезис идеи идентичности в социологии // Социологические исследования. – 2014. – № 12. – С. 3–11.
15. Орлова Э. Концепции идентичности/идентификации в социально-научном знании // Вопросы социальной теории. – 2010. – № 4. – С. 87–111.
16. Marcia J. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – Vol. 3, No. 5. – P. 551–558.
17. Waterman A. Identity development from adolescence to adulthood: An extension of theory and a review // Developmental Psychology. – 1982. – Vol. 18, No. 3. – P. 341–358.
18. Mead G. Mind, Self and Society. – Chicago: The University of Chicago Press, 1946.
19. Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. – Garden City, NY, 1959.